

hududiy taqsimoti va infratuzilmasining hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda o'quvchilar xususiyatlari chuqur tahlil qilinib, ularni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlar yaratish ta'lim sifatining oshishiga bo'yicha kompleks choralar ko'rilishi lozim. Xususan, xizmat qiladi va viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy chekka va kam rivojlangan hududlarga e'tibor qaratish, barqarorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4884-son qarori.
2. Nurmatov A.U. Zamonaviy ta'lim infratuzilmasini shakllantirishning ba'zi masalalari. "Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: Raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi. 2024-yil. 25-26-oktyabr. 313-317-b.
3. Процесс в области питьевого водоснабжения, санитарии и гигиены в школах. <file:///C:/Users/ATM9119/Downloads/JMP-2020-WASH-schools-ru.pdf>
4. Nurmatov A.U. Qishloq joylari barqaror rivojlanishini baholashning uslubiy yondashuvlari. Yangi O'zbekistonda Iqtisodiy va Ijtimoiy Geografiya Fani: Rivojlanish Muammolari va Istiqbollari. –Toshkent: 2023-yil 19-20-may.169-172-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz
6. Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi axborot byulleteni, 2024.
7. UNESCO. Digital Learning and Education Infrastructure: Global Trends. Paris: UNESCO Publishing. 2021.
8. Rasulov M., Ergashev S. "Hududiy rivojlanishda ta'lim infratuzilmasining roli", Ilmiy-amaliy jurnal, 2022, №3.
9. Fayzullayev M.A., Xujaqulov S.U. A.U.Nurmatov. Economic Geographical Characteristics Of The Development Of Industrial Networks Of Kashadarya Region. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Vol 2, Issue 4. Paris, France 19 th April 2023. -P. 125-134
10. Панасюк В. П. Школа и качество: выбор будущего. СПб.: КАРО, 2013. –С. 384.
11. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. <https://lex.uz/docs/-4312785>

REZYUME. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatidagi umumta'lim muassasalari soni, ularning hududiy taqsimoti va infratuzilmasining rivojlanish holati geografik tahlil qilinadi. Tuman va shaharlar kesimidagi maktablar sonidagi o'zgarishlar, ularning demografik omillar bilan bog'liqligi, mavjud infratuzilma imkoniyatlari hamda ta'limga bo'lgan hududiy talablar asosida baholanadi. Statistik ma'lumotlar asosida viloyatdagi umumta'lim muassasalarining soni yildan-yilga ortib borayotganini, biroq bu o'sish hududlar kesimida bir xilda kechmayotganini ko'rsatib beradi. Shuningdek, maqolada maktab infratuzilmasining sifati, binolarning jismoniy holati, zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlanganlik darajasi va ularning hududiy tafovutlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida viloyat bo'yicha umumta'lim tizimining hududiy muvozanatini ta'minlash va infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье будет проведен географический анализ количества общеобразовательных учреждений в Кашкадарьинской области, их территориального распределения и состояния развития инфраструктуры. Изменения в количестве школ в разрезе районов и городов оцениваются на основе их связи с демографическими факторами, возможностями существующей инфраструктуры и территориальными требованиями к образованию. На основании статистических данных видно, что количество общеобразовательных учреждений в области увеличивается из года в год, однако это увеличение не происходит равномерно в разрезе регионов. В статье также анализируется качество школьной инфраструктуры, физическое состояние зданий, уровень оснащенности современным учебным оборудованием и их территориальные различия. По результатам исследования даны практические рекомендации по обеспечению территориального баланса системы общего образования по регионам и совершенствованию инфраструктуры.

SUMMARY. This article will provide a geographical analysis of the number of public educational institutions in the Kashkadarya region, their territorial distribution and the state of development of infrastructure. Changes in the number of schools in the district and urban cross-section are assessed based on their correlation with demographic factors, available infrastructure capabilities, and territorial requirements for education. Based on statistics, the number of public institutions in the region is increasing from year to year, but this increase is not going uniformly in the cross-section of the regions. The article also analyzes the quality of the school infrastructure, the physical condition of the premises, the level of provision of modern educational equipment and their territorial differences. Based on the results of the study, practical recommendations were made to ensure the territorial balance of the general education system in the region and to improve infrastructure.

O'ZBEKISTONDA SAKRAL GEOGRAFIYANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

I.B.Safarov – o'qituvchi

Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: sakral geografiya, madaniyat, turizm, diniy obidalar, tarixiy yodgorliklar, turizm salohiyati, xalqaro hamkorlik.

Ключевые слова: сакральная география, культура, туризм, религиозные памятники, исторические памятники, туристический потенциал, международное сотрудничество.

Key words: sacred geography, culture, tourism, religious monuments, historical monuments, tourism potential, international cooperation.

Kirish. Sakral geografiya – bu diniy, madaniy va xiy va madaniy merosi bilan, butun dunyo uchun qimmatli tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obidalar va joylarni sakral obidalar manbaidir. Mamlakatda ko'plab me'moriy o'rganadigan fan sohasidir. O'zbekiston, o'zining boy tari-yodgorliklar, masjidlar, madrasa va maqbaralar mavjud

bo‘lib, ular nafaqat diniy ahamiyatga ega, balki turizm va iqtisodiy rivojlanish uchun ham katta salohiyatni taqdim etadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda sakral geografiyaning rivojlantirish istiqbollari, shu jumladan, diniy obidalarini saqlash, turizmni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Sakral obyektlar qadim zamonlardan buyon mavjud, ular hozirgi paytda ham turli xalqlarda mavjud. Sakral tasavvurlarga qadar ham bo‘lgan. Gerodotning bizga qadar yetib kelgan asarlarida Oykumena xalqlarining ko‘pgina juda ahamiyatli va qadrlanadigan obyektlar (ibodatxonalar, noodatiy tabiiy hodisalar, janglar va b.) to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

XX asrning so‘ngi choragida olimlarning e’tibori asosan zamon kategoriyasidan makoniy yangicha “o‘qish”ga o‘tish tufayli sotsial-gumanitar sohada sodir bo‘lgan makoniy burilish bilan bog‘liq bo‘ldi. Ukrainalik geograflar XX asrning 90-yillarning boshidan sakral geografiyaga jiddiy e’tibor qaratdilar. 1993-yilda O.Shabliy diniy jabhaning geografiyaviyligini isbot qilgan holda “sakral geografiya” terminini qo‘llaydi [2]. Mavzuga doir masalaning yechimida P.Shukanov, L.Shevchuk, O.Lyubimseva, K.Mezensev, S.Pavlov, I.Rovenchak, A.Kovalchuk va boshqalar faol bo‘ldilar. Ukrainalik faylasuf Zavgorodniy Falak va Yer olamlari oralig‘dagi o‘lchovni tashkil etadigan biror-bir diniy-falsafiy an‘ana doirasidagi muqadas joylar (sakral toposlar)ning iyerarxik jihatdan uyushtirilgan tarmog‘ini tadqiqot obyekti sifatidagi sakral geografiya deb fikr bildiradi [1]. Rossiyalik geograflar N.Zamyatina va I.Mitin sakral geografiyani gumanitar geografiya yo‘nalishlarining biri sifatida ajratadilar.

Sakral geografiya nisbatan yaqinda geografiyaning madaniyatshunoslik, tarix (arxeologiya) bilan tutashuvida shakllangan tushuncha va ilmiy yo‘nalish bo‘lib, uning o‘rganish predmetini er yuzasining an‘anaviy tabiiy komponentlari emas, balki an‘anaviy fizikaviy komponentlariga ega bo‘lgan geografik makon, aniqrog‘i geografiyaning belgilar-simvolik jihatlari tashkil etadi.

Sakral geografiyaning shakllanishi sotsial-gumanitar sohada makoniy burilish deb nomlanadigan XX asrning so‘ngi choragida olimlarning e’tibori zamon kategoriyasini tadqiq qilishdan makonni yangicha o‘qishga o‘tish bilan bog‘liq bo‘ldi. Sakral geografiyaga doir yozilgan ishlarning ko‘pida u mazmuniga ko‘ra batamom kulturologik soha bo‘lib, badiiy ijodiyot, diniy san‘at va diniy falsafa, madaniy tarixiy tadqiqotlarni sintez qiladi. Zero, dinning o‘zi insoniyat ma’naviy madaniyatning eng muhim jabhalaridan biri hisoblanadi, uning mavjudligi (faoliyati) – bu dastavval ishlab chiqarish va sakral xizmatlarni iste’moli. Turli mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar sakral geografiyani o‘rganishning istiqbolli ekanligini ko‘rsatmoqda.

Muhokama. Sakral geografiyaning umumiy tavsifi va O‘zbekistonda ahamiyati: O‘zbekistonning sakral geografiyasi o‘zining noyoblighi bilan ajralib turadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi shaharlarda joylashgan me’moriy yodgorliklar va diniy obidalar xalqaro ahamiyatga ega. Masalan, Samarqanddagi Registon maydoni, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Toshkentdagi Hazrati Imom majmuasi mamlakatning sakral geografik xazinasini tashkil etadi.

Turizm va iqtisodiy salohiyat: O‘zbekistonning sakral geografiyasi turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sakral obidalar, tarixiy joylar va diniy meros turizm uchun jozibador manzillar yaratadi. Davlat tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar, turistik infratuzilmaning yaxshilanishi va xalqaro turizmni jalb etish uchun yaratilgan qulay sharoitlar, O‘zbekistonning sakral geografiyasini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Sakral geografiyani saqlash va rivojlantirish: O‘zbekistonning sakral obidalarini saqlash va ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashish juda muhim. Me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash, ularni asrab-avaylash va restauratsiya qilish borasidagi sa’y-harakatlar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mahalliy aholi va mutaxassislarni jalb qilish orqali bu jarayonning barqaror bo‘lishi ta’minlanishi kerak.

Xalqaro hamkorlik va sakral geografiyaning rivojlanish istiqbollari: O‘zbekistonning sakral geografiyasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda, O‘zbekiston o‘z sakral obidalarini dunyo bo‘ylab tanitishi va turistlarni jalb etishda yangi imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, xalqaro me’yorlarga mos ravishda obidalar va joylar saqlanib qolishi, ularning diniy va madaniy ahamiyatini to‘liq saqlash mumkin bo‘ladi.

Sakral geografiya – bu diniy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan joylar, obidalar va yodgorliklarni o‘rganadigan geografiyaning bir bo‘limidir. U asosan insoniyatning diniy va ma’naviy merosini o‘rganish, sakral (muqaddas) joylarning joylashuvini, ular bilan bog‘liq tarixiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Natijalar. Sakral geografiya ko‘plab diniy obidalar, masalan, maqbaralar, masjidlar, cherkovlar, monastirlar, ziyoratgohlar, ibodat joylari kabi muqaddas joylarni o‘z ichiga oladi. Bu joylar odatda diniy tashrif buyurish, ritual bajarish yoki ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan joylardir. Ularning geografik joylashuvi, tarixi va madaniy ahamiyati zamonaviy dunyoda ham turizm, ilmiy tadqiqotlar va madaniy merosni saqlash nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Sakral geografiya fani odatda diniy antropologiya, arxeologiya, tarix, va madaniyatshunoslik kabi sohalar bilan hamkorlikda o‘rganiladi. Bu soha yordamida diniy va madaniy merosni saqlash, turizmni rivojlantirish va xalqaro aloqalarni kuchaytirish imkoniyatlari yaratish mumkin.

Dunyo davlatlarida sakral geografiyaning ahamiyati juda katta, chunki u diniy, madaniy va tarixiy merosni o‘rganish va saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir mamlakatda sakral geografiya o‘zining xususiyatlariga ega bo‘lib, bu jamiyatlarning diniy va madaniy o‘ziga xosligini ifodalaydi. Quyida sakral geografiyaning dunyo bo‘ylab ahamiyatini ko‘rib chiqamiz:

Madaniy merosning saqlanishi: Sakral geografiya diniy obidalar va yodgorliklarni o‘rganish orqali jamiyatlarning tarixiy va madaniy merosini saqlashda katta ahamiyatga ega. Masalan, Misrning piramidalari, Hindistonning Ganj daryosi bo‘yidagi ziyoratgohlar, Yaqin Sharqdagi qadamjolar va butun dunyo bo‘ylab joylashgan muqaddas ibodat joylari – bularning barchasi nafaqat diniy, balki xalqning madaniy o‘zligini anglatadi.

Turizm rivoji: Sakral obidalar va muqaddas joylar turizmni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Masalan, Vatikan (Italiya), Makka (Saudiya Arabistoni), Buda-Pest (Vengriya) kabi joylar dunyoning turli burchaklaridan ziyoratchilarni jalb qiladi. Sakral geografiya bu joylar va

ularning atrofini o'rganish, saqlash va turistlarga taqdim etish orqali iqtisodiy foyda keltiradi.

Diniy va ma'naviy ahamiyat: Sakral geografiya davlatlarning diniy madaniyatini va ma'naviyatini aks ettiradi. Muqaddas joylar ko'plab diniy marosimlar, tadbirlar va an'anaviy ibodatlar markazi sifatida xizmat qiladi. Bu joylar odatda insonlar uchun ma'naviy va ruhiy tozalanish manbai bo'lib, ularning ichki dunyosini boyitadi. Misol uchun, Hindistondagi Varanasi, Tibetdagi Potala saroyi yoki Xristianlarning Quddusdagi muqaddas joylari – bular diniy ibodatlar va marosimlar uchun markaz hisoblanadi.

Diniy va madaniy tolerantlikni kamaytirish: Sakral geografiya turli diniy an'analar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro hurmatni kuchaytiradi. Muqaddas joylar ko'pincha turli dinlarga mansub odamlarni birlashtiradigan markazlar bo'ladi. Masalan, Quddus shahri, uning turli diniy va madaniy tarixiy qatlamlari bilan, yahudiylar, xristianlar va musulmonlar uchun muqaddas joy hisoblanadi. Bu joylar o'zaro muloqot va dialog uchun platforma yaratadi.

Xalqaro hamkorlik va tinchlikni targ'ib qilish: Sakral geografiya davlatlar o'rtasida tinchlik va hamkorlikni rivojlantirishda yordam beradi. Diniy va madaniy obidalarini saqlash borasidagi xalqaro hamkorlik, davlatlar

o'rtasida diplomatik aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, UNESCO tomonidan jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan sakral joylar o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi va global miqyosda dinlararo tinchlikka hissa qo'shadi.

Xulosa. O'zbekistonda sakral geografiyani rivojlantirish, ayniqsa, diniy obidalarini saqlash va turizm salohiyatini kengaytirish masalalari bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Mamlakatda sakral geografiyaning rivojlanish istiqbollari yuqori bo'lib, ularning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy rivojlanishdagi o'rni beqiyosdir. Sakral geografiyaning rivojlanishiga ko'rsatilgan e'tibor, mamlakatning tarixiy merosini saqlash va yangi avlodlarga yetkazish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli, O'zbekistonning sakral geografiyasini saqlash va rivojlantirishga oid sa'y-harakatlar jahon miqyosida o'zining o'rniga ega bo'lishi mumkin. Umuman olganda, sakral geografiya dunyo davlatlarida diniy, madaniy, iqtisodiy va diplomatik sohalarida katta ahamiyatga ega. Bu soha nafaqat obidalarini saqlash, balki jamiyatlarning barqaror rivojlanishini, xalqaro hamkorlikni va turizmni rivojlantirishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Завгородний Ю.Ю. Сакральная география и феномен паломничества: тайное и явное (взгляд из советской периферии). Аиём – асем орг//завгородний хттп://турелигиоус.ком.уа. – Дата доступа: 28.09.2013.
2. Шаблий О. Общественная география: теория, история, страноведческие студии. – М.: “Комета”, 2009. –С. 324.
3. Abdullayev S., Safarov I., Sakral-geografik tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari. “Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: Raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro-ilmiy amaliy konferensiya. 2024. 25.10.
4. Шуканов П., Шуканова А. Сакрально-научови основи освитного процессу. / Имидж с учасного педагога. – Полтава: 2012. №3 (122). -С. 3-6.
5. Safarov I.B., Pirnazarov I.Sh. O'zbekistonda sakral geografiyani rivojlantirish istiqbollari. // Экономика и социум. 2025. №. 2-1 (129). 510-513-b.

REZYUME. Ushbu maqolada O'zbekistonda sakral geografiyaning rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Sakral obidalarini saqlash va rivojlantirish, turizmni kengaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются перспективы развития сакральной географии в Узбекистане. В статье также рассматриваются вопросы сохранения и развития сакральных памятников, развития туризма, развития международного сотрудничества.

SUMMARY. This article analyses the prospects for the development of sacred geography in Uzbekistan. The article also covers the issues of preserving and developing sacred monuments, expanding tourism, and developing international cooperation.

ShAHRISABZ VA MAYDANAK BALAND TOG' TURISTIK MARKAZINING EKOTURISTIK IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

Q.S.Yarashev – *geografiya fanlari doktori, professor*

O.B.Badalov – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

B.B.Yusupov – *tadqiqotchi*

Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: tog' ekoturizmi, tabiiy sharsharalar, o'rmon, daryo, g'or, ko'l, dam olish maskan va sanatoriyalar.

Ключевые слова: горный экотуризм, природные водопады, леса, реки, пещеры, озера, дома отдыха и санатории.

Key words: mountain ecotourism, natural waterfalls, forests, rivers, caves, lakes, holiday homes and sanatoriums.

Kirish. Mamlakatimizda 2025 yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta imkoniyatlar berildi. Ushbu dasturni hayotga tadbiiq etishda turizm, dam olish maskanlari va sanatoriyalarni rivojlantirishda ulkan infratuzilma ishlarni amalga oshirish maqsadida respublikamiz tog' va tog'oldi hududlarida

rekreatsiya va turizmni istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud” deb ta'kidlaganlar [1]. Jumladan, Qashqadaryo viloyati ham o'zini ekoturizm sohasidagi strategik, ichki turizm hajmini